Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 395-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271
MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekistonda aholi turmush darajasi holati va dinamikasini statistik tahlili.....277
ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O‘G‘LI
Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash (ABC) usuli asosida mahsulot tannarxini aniqlash.....284
KAMOLOVA NAZOKAT MALIK QIZI
To‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishda suv izi ko‘rsatkichlariga asoslangan yashil marketing vositalaridan foydalanish istiqbollari.....301
USMANOVA NASIBA YUNUSOVNA
O‘zbekiston korxonalarida raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini strategik boshqarish: muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari.....312
KUVNAKOV XAYDAR KASIMOVICH
O‘zbekistonda cho‘l va yarim cho‘l yaylovlari maydonlaridan samarali foydalanishda qorako‘lchilikning ahamiyati.....324
BERDIYOROV BAXTIYOR SODIQOVICH
Ekoturizm va uning O‘zbekiston turizm xizmatlari bozoridagi o‘rni.....330
GAO BING, ZHAO YI
Barriers and practice configurations of corporate green management: evidence from semi-structured interviews with operational managers.....338
YUSUPOV SAIDVALI SHUKRULLAYEVICH
To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uslubiyotini ekonometrik modellashtirish asosida takomillashtirish.....350
TAN HONGLIN, LI BING
Efficiency–resilience coupling and spatial spillovers in cross-border arid agglomerations: an analytical framework and testable propositions.....362
SAYFUTDINOV SHUXRATJON SULTONOVICH
Turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....375
BEGLAYEV UÇQUN XURRAMOVIÇ
Hududlar baliqçilik sohasiga xizmat körsatuvçi infratuzilma subyektlarining boşqaruv tizimi va ularning samaradorlikga ta’siri.....382
NIYOZMETOV DONIYOR REJABBAYEVICH
Raqamli texnologiyalar sharoitida ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘zgarishi.....395

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINING O‘ZGARISHI

NIYOZMETOV DONIYOR REJABBAYEVICH
Ma’mun universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, v.b.
E-mail: niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz
ORCID: 0009-0004-9210-5885

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar ta’sirida ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘zgarishi iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Mehnat, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyatiga raqamlashtirishning ta’sir kanallari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining so‘nggi yillardagi ma’lumotlari asosida AKT xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati, internetdan foydalanish, AKT xizmatlari eksporti va asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi o‘rganiladi. Tahlil natijasida raqamli infratuzilma, inson kapitali va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishni uyg‘unlashtirishga asoslangan mualliflik yondashuvi hamda korxonalar uchun amaliy takliflar ishlab chiqiladi.
Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish omillari, mehnat unumdorligi, kapital, umumiy omillar unumdorligi, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya.

Аннотация. В статье с позиции экономической теории исследуется изменение эффективности факторов производства под воздействием цифровых технологий. На основе последних статистических данных Узбекистана анализируются добавленная стоимость услуг ИКТ, доступ предприятий к Интернету, экспорт ИКТ-услуг и инвестиции в основной капитал. Раскрываются каналы влияния цифровизации на труд, капитал, землю и предпринимательские способности. Предложены практические меры по согласованному развитию цифровой инфраструктуры, человеческого капитала и цифровизации производственных процессов.
Ключевые слова: цифровая экономика, факторы производства, производительность труда, капитал, совокупная факторная производительность, искусственный интеллект, автоматизация, цифровая трансформация.

Abstract. This article examines changes in the efficiency of production factors under the influence of digital technologies from the perspective of economic theory. Using the latest official statistics for Uzbekistan, it analyses ICT value added, enterprise Internet access, ICT services exports and fixed-capital investment. The article identifies the channels through which digitalisation affects labour, capital, land and entrepreneurship, and proposes practical measures to align digital infrastructure, human capital and the digital transformation of production processes.
Keywords: digital economy, factors of production, labour productivity, capital, total factor productivity, artificial intelligence, automation, digital transformation.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarining mazmuni, resurslardan foydalanish usullari va iqtisodiy samaradorlikni shakllantirish mlm/exanizmlarini o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, buyumlar interneti, robototexnika, bulutli hisoblash va raqamli platformalar korxonalarga ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xarajatlarni qisqartirish, talabni prognozlash hamda resurslar taqsimotini optimallashtirish imkonini bermoqda. Natijada ishlab chiqarish omillarining an’anaviy tarkibi saqlanib qolgan holda, ularning o‘zaro birikish shakli va unumdorlikka ta’siri yangicha mazmun kasb etmoqda.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarish hajmi mehnat, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyatidan foydalanish natijasi sifatida izohlanadi. Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur omillarning samaradorligi faqat ularning miqdoriga emas, balki texnologik infratuzilma, ma'lumotlar sifati, xodimlarning raqamli ko'nikmalari va boshqaruv jarayonlarining moslashuvchanligiga ham bog'liq bo'lib bormoqda. Shu sababli raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishning o'zi avtomatik ravishda yuqori unumdorlikni kafolatlamaydi; texnologik investitsiyalar tashkiliy o'zgarishlar va inson kapitalini rivojlantirish bilan uyg'unlashishi zarur [1].

O'zbekistonda raqamli transformatsiyani jadallashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaror bilan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan. Unda iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellektni joriy etish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini monitoring qilish hamda optimallashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish vazifalari belgilangan [2].

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar ta'sirida ishlab chiqarish omillari samaradorligining o'zgarish mexanizmlarini ochib berish hamda korxonalar darajasida ushbu samaradorlikni baholash va oshirish bo'yicha nazariy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar, predmeti esa raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarish omillari unumdorligi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishlab chiqarish omillari samaradorligini o'rganish klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Cobb va Douglas ishlab chiqarish funksiyasi orqali kapital va mehnat sarfi bilan ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni matematik ifodalagan [3]. Keyinchalik Solow iqtisodiy o'sish modelida kapital va mehnat hajmi bilan izohlanmaydigan ishlab chiqarish o'sishi texnologik taraqqiyot va umumiy omillar unumdorligi bilan bog'liq holda talqin qilindi [4]. Mazkur yondashuv raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

E. Brynjolfsson va L. Hitt axborot texnologiyalarining iqtisodiy qiymatini baholashda faqat kompyuter va dasturiy ta'minotga kiritilgan investitsiyalarni hisobga olish yetarli emasligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, axborot texnologiyalaridan olinadigan samarani yuzaga chiqarishda korxonaning tashkiliy tuzilmasi, ish jarayonlarini qayta tashkil etish va nomoddiy kapitalga investitsiyalar muhim ahamiyatga ega [1]. Bu xulosa raqamli texnologiyalarni alohida texnik vosita emas, balki ishlab chiqarish tizimini o'zgartiruvchi omil sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

OECDning 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqotida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, buyumlar interneti, robototexnika va 3D bosib chiqarish

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

texnologiyalarining tarqalishi tarmoqlar hamda korxonalar kesimida bir xil emasligi qayd etilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarni joriy qilgan korxonalar, odatda, yuqoriroq unumdorlikka ega ekani, biroq bu ustunlikning bir qismi inson kapitali va texnologik kapitaldagi farqlar bilan izohlanishi ko‘rsatiladi[5].

Mazkur ilmiy qarashlardan kelib chiqib, ushbu maqolada raqamli texnologiyalar ta’siri ishlab chiqarish omillarining har biri bo‘yicha alohida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning o‘ziga xos jihati raqamli texnologiyalarni mehnat va kapitalni to‘ldiruvchi, resurslardan foydalanishni muvofiqlashtiruvchi hamda umumiy omillar unumdorligiga ta’sir qiluvchi tizimli omil sifatida talqin etishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, mantiqiy, qiyosiy va tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ishlab chiqarish omillari samaradorligi ishlab chiqarish funksiyasi, mehnat unumdorligi, kapital qaytimi va umumiy omillar unumdorligi tushunchalari asosida nazariy jihatdan o‘rganildi. Raqamli texnologiyalarning ta’sir kanallari mehnat, kapital, yer va tabiiy resurslar hamda tadbirkorlik qobiliyati kesimida guruhlandi; rasmiy statistik ko‘rsatkichlarning dinamikasi qiyosiy tahlil qilindi.

Statistik tahlilda Milliy statistika qo‘mitasining 2022–2025-yillarga oid ochiq ma’lumotlari qo‘llanildi. 2025-yil bo‘yicha to‘liq yillik ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lmagan ayrim yo‘nalishlarda yanvar–sentabr davri ma’lumotlari alohida belgilandi. Turli davrlarni taqqoslashda yillik va to‘qqiz oylik ko‘rsatkichlar o‘zaro teng davr sifatida talqin qilinmadi. Eksport bo‘yicha jami qiymatlar rasmiy statistikada keltirilgan xizmat turlari yig‘indisi asosida muallif tomonidan hisoblandi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish omillarining samaradorligiga bir nechta yo‘nalish orqali ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, ular mavjud resurslardan foydalanish intensivligini va aniqligini oshiradi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonidagi axborot nomutanosibligini kamaytirib, qaror qabul qilish tezligini oshiradi. Uchinchidan, mehnat va kapital o‘rtasidagi vazifalar taqsimotini o‘zgartirib, ayrim operatsiyalarni avtomatlashtiradi va yangi malakalarga talabni kuchaytiradi.

Mehnat omili bo‘yicha raqamlashtirishning asosiy natijasi bir ishchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmining oshishi, takrorlanuvchi operatsiyalarga sarflanadigan vaqtning qisqarishi va mehnat jarayonining aniqroq rejalashtirilishida namoyon bo‘ladi. Biroq avtomatlashtirish ayrim kasblar va vazifalarga talabni kamaytirishi, shu bilan birga dasturlash, texnik xizmat ko‘rsatish, ma’lumotlar tahlili va raqamli boshqaruv bo‘yicha yangi ko‘nikmalarga ehtiyojni oshirishi mumkin. Demak, raqamli texnologiyalar mehnat omilini to‘liq almashtirishdan ko‘ra, uning tarkibi va malaka talablarini o‘zgartiradi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Kapital omilining samaradorligi ishlab chiqarish uskunalarining raqamli boshqaruvi, sensorlar orqali monitoring, prognozli texnik xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining oshishi orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, uskunalarning texnik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish nosozliklarning oldini olish va bekor turish vaqtini kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli uskunalar, dasturiy ta’minot va kiberxavfsizlikka sarflanadigan investitsiyalar dastlabki kapital xarajatlarini oshiradi. Shuning uchun kapital samaradorligini faqat investitsiya hajmi bilan emas, balki uskunaning yuklanish darajasi, mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan kapital sarfi va investitsiyaning qaytimi bilan baholash lozim.

Yer va tabiiy resurslar omilida raqamli texnologiyalar geografik axborot tizimlari, masofadan zondlash, aqlli sug‘orish, sensorlar va resurs sarfini monitoring qilish orqali samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida tuproq namligi, ob-havo, ekin holati va suv sarfi haqidagi ma’lumotlardan foydalanish resurslarni aniqroq taqsimlashga yordam beradi. Bunda raqamlashtirish yer va suv resurslarining fizik hajmini ko‘paytirmaydi, balki ulardan foydalanish aniqligi va iqtisodiy qaytimini oshiradi.

Tadbirkorlik qobiliyati raqamli muhitda bozor ma’lumotlarini tezkor tahlil qilish, talabni prognozlash, elektron savdo kanallaridan foydalanish va biznes jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali yangi mazmun kasb etadi. Raqamli platformalar kichik korxonalarga bozorga kirish xarajatlarini kamaytirish imkonini berishi mumkin. Shu bilan birga, platformalarga qaramlik, ma’lumotlar xavfsizligi va raqamli infratuzilmadan foydalanishdagi tengsizlik tadbirkorlik faoliyatida yangi xatarlarni yuzaga keltiradi.

Ishlab chiqarish omillariga raqamli texnologiyalar ta’sirining asosiy yo‘nalishlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish omillari samaradorligiga ta’siri

Ishlab chiqarish omili	Raqamli vositalar	Samaradorlikka ta’sir mexanizmi	Baholash ko‘rsatkichlari
Mehnat	AI, robototexnika, raqamli ish joyi	Takroriy vazifalar avtomatlashtiriladi, vaqt tejaladi, malaka talabi o‘zgaradi	Bir ishchiga mahsulot; bir birlik mahsulotga mehnat sarfi
Kapital	IoT, ERP/MES, prognozli servis	Uskunalar yuklanishi oshadi, bekor turish va ta’mirlash xarajatlari kamayadi	Kapital qaytimi; uskunalar yuklanishi; investitsiya rentabelligi
Yer va tabiiy resurslar	GIS, masofadan zondlash, aqlli sensorlar	Suv, energiya va xomashyo sarfi aniq boshqariladi	Mahsulot birligiga resurs sarfi; suv va energiya sig‘imi
Tadbirkorlik qobiliyati	Raqamli platformalar, analitika, elektron savdo	Bozor axboroti yaxshilanadi, tranzaksiya xarajatlari va qaror vaqti qisqaradi	Savdo xarajatlari; buyurtma bajarish vaqti; yangi bozorga chiqish

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli texnologiyalar har bir ishlab chiqarish omiliga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Biroq ularning umumiy natijasi resurslarning o‘zaro muvofiqlashuvi va ishlab chiqarish jarayonining yaxlit boshqarilishiga bog‘liq. Masalan, korxona zamonaviy uskunani xarid qilgan taqdirda ham xodimlar undan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa yoki ishlab chiqarish ma’lumotlari yagona tizimda jamlanmasa, kutilgan unumdorlikka erishilmasligi mumkin.

Shu jihatdan raqamli texnologiyalar samaradorligini baholashda faqat texnologik vositalar soni yoki raqamli investitsiyalar hajmini hisobga olish yetarli emas. Texnologiya joriy etilishidan oldingi va keyingi davrda ishlab chiqarish hajmi, mehnat sarfi, kapitaldan foydalanish, resurs sig‘imi va mahsulot sifati ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish zarur. OECD tadqiqotida ham raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi korxonalar va tarmoqlar kesimida farqlanishi, inson va texnologik kapital esa unumdorlik ustunligini tushuntiruvchi muhim omillar ekani qayd etilgan [5].

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, ishlab chiqarish omillari samaradorligiga raqamli texnologiyalar ta’sirining mualliflik modeli taklif etiladi. Model besh bosqichdan iborat: raqamli infratuzilmani shakllantirish; xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish; ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish; resurslardan foydalanish samaradorligini monitoring qilish; natijalarni unumdorlik ko‘rsatkichlari orqali baholash. Ushbu ketma-ketlik texnologiyani joriy etish bilan iqtisodiy natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur yondashuvning ahamiyati davlat siyosatida belgilangan vazifalar bilan hamohangdir. PQ-358-son qarorda sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini monitoring qilish va optimallashtirish, uskunalar faoliyatini takomillashtirish, resurslardan foydalanishni prognozlash hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirishga oid yo‘nalishlar nazarda tutilgan [2]. Demak, korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat strategik maqsadlarini mikroiqtisodiy darajada amalga oshirish mexanizmlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Raqamlashtirishning samarasi bir qator shartlarga bog‘liq: texnologik infratuzilmaning mavjudligi, ma’lumotlarning sifati va o‘zaro mosligi, xodimlarning raqamli savodxonligi, rahbariyatning o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyati hamda kiberxavfsizlik choralarining yetarliligi. Ushbu shartlar bajarilmagan holatda raqamli investitsiyalar qo‘shimcha xarajatlar keltirib chiqarishi, biroq ishlab chiqarish samaradorligida sezilarli o‘zgarish bermasligi mumkin. Shu sababli texnologik modernizatsiya tashkiliy va institutsional o‘zgarishlar bilan birgalikda olib borilishi lozim.

O‘zbekistonda raqamlashtirishning so‘nggi statistik ko‘rsatkichlari.

Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish omillari samaradorligiga ta’sirini mamlakat miqyosida baholashda AKT sektori yaratgan qo‘shilgan qiymat, korxonalarning internetdan foydalanishi, raqamli xizmatlar eksporti va investitsiyalar muhim bilvosita ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245


ishlab chiqarish omillari unumdorligini bevosita o‘lchamaydi, biroq raqamli infratuzilma va texnologik muhitning rivojlanish darajasini tavsiflaydi.

2-jadval

AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat va uning YaIMdagi ulushi

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024
AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat, mlrd so‘m	16 692,5	24 256,0	33 742,3
AKT sektorida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi, %	1,85	2,17	2,43

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT ma’lumotlari [8; 9].
Izoh: jadvalning birinchi qatorida AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat, ikkinchi qatorida esa AKT sektorining YaIMdagi ulushi keltirilgan. Ikkinchi ko‘rsatkich AKT ishlab chiqarishi, savdosi va xizmatlarini qamrab oluvchi kengroq sektor tasnifiga asoslanadi; shu sababli ikki qatorning statistik qamrovi bir xil emas. 2022–2024-yillarda AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat nominal qiymatda qariyb ikki baravarga oshgan. AKT sektorining YaIMdagi ulushi esa 1,85 foizdan 2,43 foizga ko‘tarilgan. Nominal qiymatdagi o‘sishni to‘liq unumdorlik o‘sishi deb talqin qilib bo‘lmaydi, chunki unda narxlar va xizmatlar tarkibidagi o‘zgarishlar ham aks etadi.



1-diagramma. AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat dinamikasi, 2022–2024-yillar (mlrd so‘m)[8]


2025-yilning yanvar–sentabr oylarida AKT xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati 32 421,4 mlrd so‘mni, ularning YaIMdagi ulushi esa 2,6 foizni tashkil etdi. Mazkur davrda AKT xizmatlari tarkibida kompyuter dasturlash, maslahat va unga yaqin xizmatlarning ulushi 43,2 foiz, aloqa xizmatlarining ulushi 35,1 foiz bo‘lgan. Ma’lumotlarni joylashtirish va qayta ishlash xizmatlari hamda veb-portallar 12,3 foizni, dasturiy ta’minot ishlab chiqarish 6,2 foizni tashkil etgan [10]. Bu tarkib raqamli ishlab chiqarish uchun dasturiy ta’minot, ma’lumotlarni qayta ishlash va professional IT xizmatlarining ahamiyati ortayotganini anglatadi. Ushbu ko‘rsatkich 9 oylik davrga tegishli bo‘lib, yillik 2024-yil ma’lumoti bilan bevosita tenglashtirilmasligi lozim.

3-jadval

Korxona va tashkilotlarning internetga ulanish ko‘rsatkichi

Yil	2023	2024	2025
Internetga ulangan korxona va tashkilotlar ulushi, %	28,8	37,6	38,7

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT [11].
Izoh: ko‘rsatkich korxona va tashkilotlarning internetga ulangan ulushini ifodalaydi; u ERP, sun’iy intellekt yoki ishlab chiqarishni avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish darajasini anglatmaydi. 2023-yildagi 28,8 foizlik ko‘rsatkich 2024-yilda 37,6 foizga, 2025-yilda 38,7 foizga yetgan. Shu bois internetga ulanishni raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarining to‘liq joriy etilishi bilan tenglashtirish mumkin emas.



2-diagramma. Internetga ulangan korxona va tashkilotlar ulushi, 2023–2025-yillar (foiz) [11]

Raqamli infratuzilmaning kengayishi ishlab chiqarish omillaridan foydalanish uchun zarur shartlardan biridir. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, internetga ulangan abonentlar soni har 100 kishiga nisbatan 2023-yilda 80,9 tani, 2024-yilda 84,7 tani va 2025-yilda 93,6 tani tashkil qilgan [12]. Bu ko‘rsatkich aholining internetdan foydalanish imkoniyatlari kengayganini bildiradi. Korxonalar uchun esa mazkur infratuzilma elektron savdo, masofaviy boshqaruv, bulutli xizmatlar va raqamli ta’minot zanjirlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

4-jadval


AKT xizmatlari eksporti dinamikasi

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Telekommunikatsiya xizmatlari, mln AQSH dollari	194,0	181,6	180,3
Kompyuter dasturiy ta’minoti, mln AQSH dollari	157,8	261,5	501,1
Boshqa kompyuter xizmatlari, mln AQSH dollari	98,5	60,3	154,6
Axborot agentligi va boshqa axborot xizmatlari, mln AQSH dollari	90,0	137,4	275,2
Jami AKT xizmatlari eksporti, mln AQSH dollari*	540,4	640,8	1 111,2

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT [13].

Jami qiymat rasmiy jadvaldagi xizmat turlari yig‘indisi asosida muallif tomonidan hisoblangan. 2025-yilda AKT xizmatlari eksporti 1,11 mlrd AQSH dollariga yaqinlashgan. Ayniqsa, kompyuter dasturiy ta’minoti eksportining 2023-yildagi 157,8 mln dollardan 2025-yilda 501,1 mln dollarga ko‘tarilishi

raqamli mahsulotlar va bilimga asoslangan xizmatlarning tashqi bozordagi salohiyati ortayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon yuqori malakali mehnat, dasturiy mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan kapital va tadbirkorlik qobiliyatining iqtisodiy qiymatini oshiradi.



Manba: muallif hisob-kitobi.

3-diagramma. AKT xizmatlari eksportining jami qiymati, 2023–2025-yillar (mln AQSH dollari)

Kapital omilining raqamli transformatsiyadagi ahamiyati investitsiyalar tarkibida ham namoyon bo‘ladi. 2025-yilda O‘zbekistonda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 591,1 trln so‘m investitsiya o‘zlashtirilgan va bu 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga ko‘p bo‘lgan. Shu davrda asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 422,1 trln so‘mni tashkil etgan. Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida axborot va aloqa faoliyatining ulushi 1,5 foiz bo‘lgan [14]. Bu ko‘rsatkich raqamli infratuzilma va aloqa tarmoqlariga investitsiyalar mavjudligini ko‘rsatsa-da, korxonalarning ichki raqamli uskunalari va dasturiy ta’minotiga yo‘naltirilgan barcha investitsiyalarni qamrab olmaydi.

5-jadval

2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha ayrim ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Qiymat
Asosiy kapitalga jami investitsiyalar	591,1 trln so‘m
2024-yilga nisbatan o‘sish	10,5 %
Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar	422,1 trln so‘m
Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida axborot va aloqa ulushi	1,5 %


Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [14].

Ushbu ma’lumotlar kapital qo‘yilmalarining umumiy ko‘lamini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar samaradorligini baholashda investitsiya hajmidan tashqari, yangi texnologiya natijasida uskunalarning bekor turish vaqti, mahsulot birligiga sarflanadigan energiya, ishlab chiqarish sikli davomiyligi va mehnat unumdorligidagi o‘zgarishlarni ham hisobga olish lozim.

Keltirilgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar raqamli muhitning rivojlanishini tavsiflaydi, biroq korxonalar kesimida mehnat yoki kapital unumdorligini

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

bevosita o‘lchamaydi. Bevosita baholash uchun korxonaning texnologiya joriy etilishidan oldingi va keyingi ishlab chiqarish hajmi, bandlik, ish vaqti, kapital qiymati, xomashyo hamda energiya sarfi haqidagi ma’lumotlar talab etiladi.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirishning raqamli transformatsiya zanjiri

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar sharoitida ishlab chiqarish omillarining an’anaviy iqtisodiy mazmuni saqlanib qolishi bilan birga, ulardan foydalanish mexanizmlari va samaradorlik mezonlari o‘zgarishini ko‘rsatadi. Mehnat omilida raqamli ko‘nikmalar va inson kapitalining ahamiyati ortadi; kapital omilida uskunalarning raqamli boshqaruvi va aktivlardan foydalanish darajasi muhimlashadi; yer va tabiiy resurslar bo‘yicha monitoring hamda aniq boshqaruv imkoniyatlari kengayadi; tadbirkorlik qobiliyatida esa ma’lumotlarga asoslangan qarorlar va raqamli bozor kanallari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samarasi ularni alohida joriy etish bilangina emas, balki mehnat, kapital, tabiiy resurslar va tadbirkorlik faoliyatini yagona ishlab chiqarish tizimida muvofiqlashtirish orqali yuzaga chiqadi. Shu ma’noda, umumiy omillar unumdorligi raqamli transformatsiyaning kompleks natijasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etishdan oldin ishlab chiqarish omillari samaradorligining boshlang‘ich ko‘rsatkichlarini aniqlash va keyingi natijalarni shu asosda taqqoslash;
- raqamli investitsiyalarni faqat texnik vositalar xaridi bilan cheklamasdan, xodimlarni qayta tayyorlash, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar sifati va ish jarayonlarini qayta tashkil etish bilan birgalikda rejalashtirish;
- mehnat unumdorligi, kapital qaytimi, energiya va xomashyo sig‘imi, uskunalarning bekor turish vaqti hamda mahsulot sifati ko‘rsatkichlarini birlashtirgan raqamli samaradorlik monitoringi tizimini joriy etish;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va texnologik risklarni boshqarish talablarini ishlab chiqarish samaradorligi bilan birgalikda baholash;
- kelgusidagi empirik tadqiqotlarda korxonalar kesimidagi panel ma’lumotlar asosida raqamli texnologiyalar indeksi va umumiy omillar unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik baholash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Brynjolfsson E., Hitt L.M. Beyond Computation: Information Technology, Organizational Transformation and Business Performance // Journal of Economic Perspectives. 2000. Vol. 14, No. 4. P. 23–48. DOI: 10.1257/jep.14.4.23.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/acts/-7158604

3. Cobb C.W., Douglas P.H. A Theory of Production // American Economic Review. 1928. Vol. 18, Supplement. P. 139–165.

4. Solow R.M. Technical Change and the Aggregate Production Function // The Review of Economics and Statistics. 1957. Vol. 39, No. 3. P. 312–320. DOI: 10.2307/1926047.

5. Calvino F., Costa H., Haerle D. Digital Technology Diffusion in the Age of AI: Cross-country Evidence from Microdata // OECD Science, Technology and Industry Working Papers. 2026/01. OECD Publishing, Paris. DOI: 10.1787/ebc2debe-en.

6. OECD. OECD Compendium of Productivity Indicators 2026. Paris: OECD Publishing, 2026. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-compendium-of-productivity-indicators-2026_734a5e68-en.html

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. AKT xizmatlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (yillik), SIAT ma’lumotlar bazasi. https://siat.stat.uz/data/3049/

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. AKT sektorida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik), SIAT ma’lumotlar bazasi. https://siat.stat.uz/data/3053/

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2025-yil yanvar–sentabr. YaIM va AKT xizmatlari bo‘yicha statistik hisobot. https://stat.uz/

11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Korxona va tashkilotlarning internetga ulanish ulushi, SIAT ma’lumotlar bazasi. https://siat.stat.uz/data/1284/

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, 100 ta aholiga nisbatan (hududlar kesimida), SIAT ma’lumotlar bazasi. https://siat.stat.uz/data/1269/

13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. AKT xizmatlari eksporti, SIAT ma’lumotlar bazasi. https://siat.stat.uz/data/1504/

14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar 591,1 trln so‘mga yetdi. 26.01.2026. https://stat.uz/

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy